

O'zbek va qirg'iz xalqlari ilmiy hamkorligi yanada mustahkamlanmoqda

Xorazm Ma'mun akademiyasiga Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyatidagi "Sulaymon tog'" tarixiy - arxeologik muzey majmuasi rahbari Abdurahmanov Sultonbek boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Mehmonlar dastlab Xorazm Ma'mun akademiyasi muzeyi faoliyati bilan tanishdilar. So'ngra Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi olimlari bilan uchrashuv o'tkazildi va o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.



Mazkur yo'nalishdagi hamkorlik o'zbek va qirg'iz xalqlari bilan azaldan mavjud bo'lgan do'stona munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga, Xorazm Ma'mun akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi va qardosh qirg'izistonlik arxeolog, etnograf va muzeishunos olimlarining yangi ilmiy-madaniy

loyihalarini samarali amalga oshirishiga, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishga zamin hozirlaydi.

